

### BADIIY USLUB MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'RGANILISH METODLARI

***Hakimov Muhammadxon Xo'jaxonovich***

*Filologiya fanlari doktori, Professor, Farg'ona Davlat Universiteti*

***Ergasheva Umida Ravshan qizi***

*Ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi, Fargona davlat universiteti*

*E-mail: [ergashevaumida359@gmail.com](mailto:ergashevaumida359@gmail.com)*

Badiiy adabiyot stili keng qamrovligi, ya'ni barcha stillami ham o'zida ifodalashi bilan ajralib turadi.<sup>1</sup> Demak, stilistika ikki xil ko'rinishga ega:

1. Nutq stilistikasi. Bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi.

Nutq stillari bir-biriga bog'liq vositalarning tuzilishidan tashkil topadi. Ular tilning vazifasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham ular *nutq stillari* deyiladi. Tilning vazifasi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq va uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi. Nutq stili tizimini tashkil etuvchii ifodalar faqat bir stil doirasida cheklanib qoladi. Masalan, ilmiy stilda ishlatiladigan terminlar badiiy, publitsistik, rasmiy va so'zlashuv stillarida ishlatilmasligi ham mumkin. Lekin har bir nutq stili o'zining barcha xususiyatlari bilan yagona bir maqsadga bo'ysungan muayyan til vositalarining majmuasiga ega.

Nutq stillari til taraqqiyotining ma'lum bir davrida asta-sekin shakllanadi va o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, XX asr boshida nashriyot va vaqtli matbuot ishlarining kengayib ketishi bilan bog'liq tarzda O'zbekistonda publitsistik stil vujudga kelgan.

Nutq stillari og'zaki va yozma nutq shakllari bilan chambarchas bog'liq. Derna, har bir nutq stili og'zaki va yozma shaklda ifodalanishi mumkin. Masalan, so'zlashuv stili, asosan, og'zaki nutqqa xos. Lekin badiiy adabiyotda bu stil yozma shaklga ega bo'ladi. Shuningdek, ilmiy stilning og'zaki ko'rinishli dars jarayonida ma'ruza o'qilganda, anjumanlarda ilmiy ma'ruzalar bayon qilinganda namoyon bo'ladi, yozma shakli esa dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar taizida ifodalanadi.

2. Lingvistik, ya'ni til stilistikasi.

Tilning stilistik vositalarini o'rganish tilshunoslikning dolzarb va muhim masalalaridan biridir. Stilistikada qadimdan badiiy obrazlarni yaratishda so'zlarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi o'rganib kelinmoqda. Chunki har bir stilistik vosita nutq jarayonida nominativ vazifani bajarish bilan birgalikda, uslubiy vosita ham bo'lishi mumkin. Odatda bunday vositlar badiiy tilning bo'yoqdor va yanada ta'sirchan bo'lishiga urg'u beradi. Bunday stilistik vositalar tilshunoslikda troplar deb nomlanadi. Og'zaki nutqda matnning emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligini oshirishda troplarning o'rni kattadir.

Tilshunoslikning eng dolzarb va qiziqarli bo'limlaridan biri stilistikadir. Chunki tilning barcha pog'onalari va satxlari, o'z stilistik qirralarga ega, fonologiya, morfonologiya, morfologiya, leksikologiya, frazeologiya va tekstologiya (yoki diskursologiya) singari til pog'onalarini, til birliklari (fonema, morfofonema, morfema, leksema, sintaksema (frazema, sentencema), frazeoema va tekstema (diskursema))larning o'ziga xos jihatlari stilistikaning alohida o'rganish obekti bo'lib xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика.-М., 1963.стр 6.

Shuning uchun stilistikada ularni alohida boblarga ajratib o'rganiladi, ularning stilistik bo'yoqlari va ishlatilish omillari, yozma va og'zaki nutqda ishlatilishi stilistik vositalar orqali ochib beriladi.

Til stilistikasining qamrovi keng bo'lib, u tilning barcha stilistik sistemasini tekshiradi. Stilistika tilning sistem tizimidan tashqari, tilning yozma va og'zaki shakllarini shuningdek adabiy va so'zlashuv nutqini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari stilistika til vositalarining to'g'ri tanlangan yoki tanlanmaganligini aniqlash, shu bilan birga ularni to'g'ri qo'llash yo'llarini ham belgilab beradi.

Tilning ifoda vositalari bilan stilistik vositalar o'rtasidagi farqni ko'rib chiqadigan bo'lsak, stilistika faning nomoyondalaridan I.R.Galperinning fikriga ko'ra tilning ifoda vositalari va stilistik vositalari o'rtasida uzviy bog'liqlik borligini ta'kidlaydi, unga ko'ra tilning ifoda vositalari fonetik-fonologik, morfologik, leksik, frazeologik, sintaktik va tekstologik (diskursologik) birliklari til tizimida gaplarni mantiqiy va emotsional-ekspressiv jihatlarini kuchaytirish uchun qo'llaniladi.<sup>2</sup> Shunday qilib, har qanday til biriligi gap yoki jumlaning ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qilsa, u tilning ifoda vositasi bo'ladi.



<sup>2</sup> Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. –М.: Наука, 1981, с. 5-7;